

ANIMALISTIK FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARINING TARJIMADA AKS ETISHI

Abdusattorova Pokiza Xayrulla qizi

O'zMU 4 kurs talabasi

E-mail: pokizabdusattorova5@gmail.com

+998884140204

Annotatsiya: Mazkur maqolada animalistik frazeologizmlarning semantik xususiyatlari va ularning tarjima jarayonida aks etishi batafsil tahlil qilinadi. Ayniqsa, uy hayvonlari asosidagi frazeologizmlar misolida obrazlilik, ekspressivlik va milliy-madaniy xususiyatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tarjimada ekvivalentlik muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi.

Abstract: This article analyzes the semantic features of animalistic phraseological units and their representation in translation. Special attention is given to phraseological expressions involving domestic animals, focusing on imagery, cultural specificity, and equivalence issues.

Kalit so'zlar: animalistik frazeologizm, semantika, tarjima, uy hayvonlari, ekvivalentlik, obrazlilik

Keywords: animalistic phraseologisms, semantics, translation, domestic animals, equivalence, imagery.

Frazeologizmlar tilning eng muhim va murakkab qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat til boyligini oshiradi, balki xalqning mentaliteti, urf-odati va madaniyatini ham aks ettiradi. Animalistik frazeologizmlar esa alohida guruhni tashkil etib, hayvonlar orqali inson xulq-atvori va holatini ifodalaydi.

Uy hayvonlari asosidagi frazeologizmlar inson hayotiga yaqin bo'lgani sababli juda keng qo'llaniladi. Tarjima jarayonida bunday birliklarni to'g'ri yetkazish tarjimon oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

H. Burger frazeologizmlarni milliy madaniyat bilan bog'liq holda talqin qilib, ularni

xalq mentalitetining ifodasi deb hisoblaydi [2].

Animalistik frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari haqida gap ketganda, tabiiyki, ular xalqning madaniy qarashlari asosida shakllanishi ko'zga tashlanadi. Har bir hayvon ma'lum ramziy ma'noga ega:

- Tulki / Fuchs – ayyorlik
- Sher / Löwe – jasorat
- Eshak / Esel – qaysarlik
- Qo'y / Schaf – yuvoshlik

Masalan, nemis tilidagi “wie ein Elefant im Porzellanladen” iborasi no'noq odamga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilida bunga yaqin ma'no “fildek beso'naqay” iborasi orqali ifodalanadi.

Bu birliklar til egalarining dunyoqarashi va hayvonlarga bergan ramziy bahosini aks ettiradi. Shuning uchun animalistik frazeologizmlar lingvokulturologiyaning muhim tadqiqot obyektidir [3].

Animalistik frazeologizmlar ko'pincha insonning turli xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ularni semantik jihatdan bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Bu guruhga insonning ijobiy yoki salbiy xarakter xususiyatlarini ifodalovchi iboralar kiradi.

[4]. Animalistik frazeologizmlarning semantik xususiyatlari

Animalistik frazeologizmlar **ko'chma ma'noga** ega bo'lib, **obrazlilik** va **ekspressivlik** bilan ajralib turadi. Ular insonning turli sifatlarini ifodalaydi.

Misollar:

auf den Hund kommen — inqirozga uchramoq, qashshoqlashib ketmoq

die Katze im Sack kaufen — ko'r-ko'rona sotib olmoq, tekshirmasdan xarid qilish

wie eine Katze schleichen — mushukday sekin yurmoq, ehtiyotkor harakat qilish

arbeiten wie ein Pferd — otdek ishlamoq, juda qattiq mehnat qilish

Ushbu frazeologizmlar orqali insonning turli holatlari ifodalanadi.

2. Tarjimada ekvivalentlik masalasi

Frazeologizmlarni tarjima qilishda eng muhim jihat ekvivalentlikni topishdir. Ba'zi hollarda to'liq ekvivalent mavjud bo'lsa, ba'zida faqat ma'no saqlanadi.

3. Tarjima strategiyalari

- To‘liq ekvivalent bilan tarjima
- Ma’nodosh ibora bilan tarjima
- Izohli tarjima

4. Metodologiya

Mazkur tadqiqotda qiyosiy, semantik va tarjima tahlili metodlaridan foydalanildi.

Xulosa: Uy hayvonlari asosidagi frazeologizmlar tarjimada muhim o‘rin tutadi.

Ularni to‘g‘ri tarjima qilish uchun semantik va madaniy omillar hisobga olinishi zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Телия В.Н. Русская фразеология. – Москва: Наука, 1996.
2. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2010.
3. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Niemeyer, 1997.
4. Vinovich L.I. Немецко-русский фразеологический словарь. Москва, 1975.